

MIFOLOGIYA LISONIY VA LINGVOKULTUROLOGIK HODISA SIFATIDA

Po`latova Sarvinoz Botir qizi

O`zbekiston Milliy Universiteti I bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Mifologiya – muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi hamda qadimiy asotirlar majmui hisoblanadi. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi va o`zbek mifologiyasi va boshqa turdagi mifologiyalar insoniyat ma`naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to`g`risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo`lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimiy mifologik qarashlarni o`zida ifoda etgan totemistik, anemistik va madaniy miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tarkibiy o`zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy miflar va o`lib-tiriluvchi qahramonlarga asoslangan tabiat haqidagi miflar ham keng tarqalgan.

Kalit so`zlar:

Mifologiya, antropogenik miflar, samoviy miflar, totemistik miflar, anemistik miflar

Miflarni tadqiq etuvchi, o`rganuvchi fan – mifologiya deb ataladi. Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga bog`liq bo`lgan ilk urinishlar antik davr olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, Platon asotirlarni falsafiyramziy nuqtai nazardan talqin qilgan bo`lsa, yunon faylasufi Evgemer (miloddan avvalgi III-asr) mifik obrazlarni o`tmishda yashab o`tgan real tarixiy shaxslarning ifodalovchi timsol deb bilgan. Germaniyada XIX – asrning birinchi yarmida Germaniyada “mifologik maktab” yuzaga kelgan. Ma`lumot o`rnida aytishimiz mumkinki, mifologik maktabning nazariy asoslari nemis filologlari aka-uka Ya.Grimm va V.Grimmlarning nemis filologiyasi kitobida bayon qilingan. Ular xalq ertaklarini tahlil qilish jarayonida qadimiy mifologik tasavvurlarning epik syujetlar tarkibidagi qoldiqlarini aniqlashgan va hind-yevropa xalqlari mifologiyasi yagona negizga borib taqaladi, degan muhim ilmiy xulosaga kelishgan. Xuddi shu nazariyani rivojlantirgan A.Kun, V.Mannhardt (Germaniya), M.Breal (Fransiya), M.Myuller (Angliya), F.I.Buslayev, A.N.Afanasyev, O.F.Myuller, A.A.Potebnya (Rossiya) kabi olimlar miflarni qiyosiy tadqiq qilishgan. Keyinchalik jahon mifshunosligida ko`plab yangi ilmiy yo`nalishlar yuzaga kelgan. Xususan, ingliz qiyosiy etnografiyasining yutuqlari asosiga qurilgan “antropologik maktab” (E.Taylor, E.Lang, G.Spenser, J.Freyzer); mif va marosimlarni o`zaro bog`liqlikda tadqiq etgan kembrijlik mifshunoslarning “ritualistik maktab”i (D.Harrison, F.M.Kornford, A.B.Kuk, G.Marri); ibtidoiy madaniyatning ruhiy asoslarini o`rgangan fransuz etnologlarining “ijtimoiy maktabi” (E.Dyurkgeym, L.Levi-Bryul); mifologik tafakkurning intellektual hodisa sifatidagi o`ziga xosligini yoritib bergan “simvolistik maktab” (E.Kassiyer, V.Vundt, K.G. Yung – germaniya); “structural maktab” (K.Levi – Stross – Fransiya) vakillarining asarlarida miflar turli nuqtai – nazardan tahlil qilingan.

O`zbek mifologiyasi esa G`.Akramov, B.Sarimsoqov, T.Haydarov, T.Rahmonov (mif va epos), M.Jo`rayev, Sh.Turdimov (O`zbek mifologiyasining obrazlar silsilasi va genetik asoslari), Sh.Shomusarov (o`zbek va arab mifologiyasining qiyosiy tahlili) kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, Osiris (qadimiy Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O`rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O`zining ilk rivojlanish bosqichida

eng sodda ibtidoiy tushunchalardan iborat boʻlgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini oʻz ichiga olgan mukammal tizimga aylangan. Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari mifologiya bilan chambarchas bogʻliq. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimiy diniy eʼtiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va insoniyat hayotiga doir eng soda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz-hissiz anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, soʻz sanʼati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini oʻz ichiga qamrab olgan. Ushbu qadriyatlar odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini oʻzida jamlaganizchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi gʻoyasi boʻlib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini oʻzida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi gʻoyasi sifatida xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini oʻzida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois mifologiya folklor, yozma adabiyot, sanʼat va maʼnaviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini oʻtagan.

Tarixiy maʼlumotlarga tayanib faktlarga yuzlansak koʻrishimiz mumkinki, 20 – asr madaniy mentalitetining asosiy yoʻnalishlaridan biri bu – arxaiik tuzilmalarga murojaatni aktualashtirish, dunyoni idrok etish, imkoniyatlarni kuchayishiga qarshi paydo boʻlgan klassik va arxaiik afsonalarni chuqur oʻrganishdir. Boshqa bir tomondan olganda esa, asosan, yangi madaniyat va umuman sivilizatsiya inqiroziga bogʻliq hisoblanadi. Bu esa qadimgi mifologik tuzilmalardan tashkil topgan, madaniyat va tarix bilan bogʻlangan tushunchaning maʼlum turini shakllantirishga turtki berdi.

Mifga murojaat qilganda, uning markaziy semantik yadrosi – mifologemani koʻrib chiqish kerak boʻladi, uning mohiyatini anglash masalasi hali ham oʻz yechimini topgani yoʻq. Afsona hamda mifologik muammolar uzoq vaqtdan beri insonparvarlik bilimlarining turli sohalarida: falsafa, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklor, etnografiya, tarixni oʻrganish mavzusi boʻlib kelgan. Har bir soha ushbu kontseptsyani oʻrganishda tadqiqotning oʻziga xos tomonini kiritadi, bu esa koʻrib chiqilayotgan hodisa doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, uning semantik boyligi va namoyon boʻlishining oʻzgaruvchanligi imkoniyat doirasidan dalolat beradi.

XIX – XX asr boshlarida rus madaniyati qadriyatlari birinchi marta milliy tarixiy va madaniy iyerarxiyada eng yuqori darajani egalladi va XX – asrning birinchi choragidagi badiiy doira hukmroniga aylandi.

Mifologiya dunyodagi har qanday sivilizatsiyada ajralmas rol oʻynagan. Tarixiy davrlarda, gʻor rasmlari, toshlar hamda yodgorliklarda ishlangan rasmlarning barchasi shuni koʻrsatadiki, odamlar oʻzlarining afsonalarini soʻzlar bilan ifoda etish bilan bir qatorda oʻzlarining eʼtiqodlarini ham tasvirlashgan. Psixiatr Karl Jungning soʻzlariga koʻra, afsonalar inson psixikasining zaruriy yoʻnalishi boʻlib, koʻpincha nomutanosib boʻladigan tushunchalar orasida maʼno va tartib toppish kerak deb hisoblanadi.

Olimlarning fikricha, ruhiyat olam va insonning aksi sifatida shu qadar cheksiz murakkablikki, uni juda koʻp tomonlama kuzatish va oʻrganish mumkin. Har bir inson oʻzi uchun dunyoning oʻziga xos segmentini yaratadi va oʻz shaxsiy tushunchalar tizimini, koʻpincha tushunish va anglash qiyin boʻlgan yoʻllar bilan quradi.

Miflarning asosiy vazifasi shundan iboratki, tinglovchiga oʻz madaniyatlari va qadriyatlar tizimi haqida oʻzlari uchun talqin qilgan tizimidir. Dunyoning koʻp joylarida afsonalar maʼno jihatdan bir – biriga juda yaqin. Gʻarb kitoblarida keltirilgan voqealar – qadimgi Shumeriya, Misr, Finikiya va Xitoy xalqi afsonalariga oʻxshaydi. "Buyuk Toʻfon" haqidagi hikoyani yer yuzidagi deyarli har bir madaniyatdan topishimiz mumkin, ammo Injilda berilgan shaklini Mesopotamiyaning Atrahaziya afsonasida uchratishimiz mumkin. Oʻlayotgan va tirilayotgan Xudoning qiyofasi (xudoning xudosi, oʻz xalqining yaxshilari uchun halok boʻlgan yoki xalq gunohlari avf etilishi uchun vafot etgan, biroq vaqt oʻtgach esa yana tirilgan) ertaklarda qadimgi Shumeriyada kuzatilishi mumkin.

Dunyo bo`ylab har doim va har qanday sharoitda odamlar yaratgan afsonalar rivojlanib bordi; Ular inson hayoti hamda ong-tafakkurining faoliyati natijasida paydo bo`lgan har qanday narsaning jonli ramzi bo`lgan. Fazo haqida insoniyatning bitmas – tuganmas tushunchalari afsonaning paydo bo`lishida muhim rol o`ynagan desak mubolag`a bo`lmaydi. Din, falsafa, san`at, ibtidoiy va qadimgi odamning ijtimoiy shakllari, ilm – fan va texnologiyadagi asosiy kashfiyotlar afsona paydo bo`lish jarayonida asosiy rol o`ynaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. 2 изд. –М.,2000
2. Гердер И. Г. Идеи и философия истории человечества. –М., 1977. –С. 233. ние. М., 1972. – С. 122
3. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ва излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№3
4. The Relationship Between Language, Identity and Cultural <https://core.ac.uk>
5. A.L.Krober. “The Nature of Culture”, 1952
6. Rossi Landi. “Language, society and semiotics”. 2015